Ayollar tadbirkorligi faoliyatiga ta’sir etuvchi omillardan foydalanish samaradorligi darajasi tahlili


Kamoldinova Nargiza Anvarovna
Andijon davlat texnika instituti
Iqtisodiyot kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ayollar tadbirkorligi faoliyatiga ta’sir etuvchi omillardan foydalanish samaradorligi darajasini - Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan ayollar rahbarligidagi to‘qimachilik korxonalari misolida samaradorlik darajasi tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: ayollar tadbirkorligi, iqtisodiy mexanizm, to‘qimachilik korxonalari, asosiy fondlar, aktivlar salmog‘i, samaradorlik tahlili, Andijon viloyati, xotin-qizlar bandligi, diversifikatsiya.

Jahon iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan keskin raqobat sharoitida tadbirkorlik, xususan ayollar tadbirkorligini ahamiyatini oshirish muhim va dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayollar tadbirkorligini iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, uning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash masalalaridagi ilmiy tadqiqotlar alohida ustuvorlik kasb etmoqda. Mazkur yo‘nalishda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish omillari va amal qiluvchi tamoyillar, ayollar rahbarligidagi kichik tadbirkorlik subyektlari samaradorligini oshirish va rivojlantirish tizimini takomillashtirish kabi masalalar ilmiy jihatdan o‘rganilmoqda. Ayollar tadbirkorligiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash va baholash uslublarini takomillashtirish, uning prognozini tuzish kiradi. Ayollar tadbirkorligini iqtisodiy mexanizmida kreditlar, subsidiyalar, investitsiyalarni jalb etish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish keng qo‘llanilmoqda. Natijada, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini jahon iqtisodiyotidagi yangilanishlar asosida muntazam takomillashtirib borishga katta hissa qo‘shadi.

Andijon viloyatida ayol tadbirkor korxonalar faoliyatini rivojlantirish va uning iqtisodiy mexanizmi samaradorligini tahlil qilish masalalaridan keng foydalanishni talab etadi. Shu sababli ayol tadbirkorligi bilan shug‘ullanuvchi korxonaning iqtisodiy mexanizmining amal qilish xususiyatlari, uning samaradorligi ko‘rsatkichiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash maqsadida viloyat miqyosida faoliyat ko‘rsatayotgan “Abdumutal tekstil” MCHJ, “Taraqqiyot tekstil rivoj” MCHJ, "Bog‘ishamol tekstil lyuks” MCHJ, “Imkon-mato-textil” MCHJ, “Husan baby tex” XK, “Robiya-rivoj-textile” XK, “Asel-rivoj tekstil” XK, “Barqaror tekstil” XKlar tahlil etilgan. Ayol tadbirkor korxonalarning iqtisodiy mexanizmi samaradorligini tahlil qilish orqali korxonalar faoliyatidagi mavjud muammolar hamda ta’sir etuvchi omillar aniqlangan. Ayollar tadbirkorligi faoliyatidagi korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishdan to mahsulotni sotilgungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga qamrab oladi 2.3.1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Ayollar tadbirkorligi korxonalarini iqtisodiy mexanizmi samaradorligini baholashda qo'llaniladigan tizimi[1]

Shu o'rinda Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan tanlab olingan to'rta ayol tadbirkor korxonalari, ya'ni "Asel-rivoj tekstil" xususiy korxonasi, "Barqaror tekstil" xususiy korxonasi, "Bog'ishamol tekstil lyuks" MCHJ, "Taraqqiyot tekstil rivoj" MCHJlarining iqtisodiy faoliyati natijalariga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq. Ayollar tadbirkorligidagi korxonalarning asosiy fondlarini ichida eng faol darajasi ortgan. Shu sababli ishlab chiqarish uskunasini boshqa asosiy fondga nisbatan tez-tezda yangilashni taqozo etadi. Chunki ayol tadbirkorligi bilan shug'ullanuvchi to'qimachilik korxonalarida asosiy vositalar tarkibida ishlab chiqarish fondlari ortib bormoqda. Bu quyidagi tanlab olingan korxonalardagi natijalar 2.3.2-rasmda keltirilgan.



[1] Muallif tomonidan tuzilgan.

2-rasm. Ayol tadbirkorligi bilan shug‘ullanuvchi Andijon viloyatidagi ayrim tekstil korxonalari ishlab chiqarish fondlari tarkibidagi aktivlarning salmog‘i (foiz)[2].

Andijon viloyatidagi ayol tadbirkor raxbarligidagi ayrim tekstil korxonalari ishlab chiqarish fondlarida aktivlarning ulushi “Asel-rivoj tekstil” xususiy korxonasida 2018-yilda 28,9%ni hamda 2020-yilda 19,2%ga tushgan. 2021-yildan boshlab yana aktivlarning ulushi ortib borgan, ya’ni 2021-yilda 23,7%ni tashkil etgan, lekin oxirgi 2024-yilda bu ko‘rsatkich 33,9 %ga ko‘tarilgan, “Barqaror tekstil” xususiy korxonasida ham eng past ko‘rsatkich 2020 yilga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, bu yili 22%ga va 2024-yilda 33,5%ga teng bo‘lgan. “Bog‘ishamol tekstil lyuks” MCHJda 2020-2021-yillar oralig‘ida aktiv asosiy fondlardagi ulushi 20-23,9%ga teng bo‘lib, qolgan yillarga qaraganda past bo‘lgan. Bunga asosiy sabab shuki, 2019-yildagi Pandemiya ta’sirida aktivlarning ulushi tushganligini ko‘rish mumkin.

Andijon viloyatida tadbirkorlik faoliyati orqali ayollar tadbirkorligi korxonalari o‘z ichiga yakka tartibdagi korxonalar, ma’suliyati cheklangan jamiyatlar, firmalar va ayollarning o‘zini – o‘zi band qilish sohalarini o‘z ichiga oladi. Shu sababli 2018-2024-yillar oralig‘ida Farg‘ona vodiysi viloyatlaridagi ayollar rahbarligidagi korxonalarni absalyut salmog‘i Andijonda 4,7 foiz, Namanganda 10,4 foiz hamda Farg‘ona viloyatida 7,4 foiz yoki respublika bo‘yicha 12,2 foizni tashkil etgan.

Andijon viloyati iqtisodiyotida ayollar tadbirkorligi faoliyatini rivojlantirish, ayollar bandligini va ularni daromadlarini oshishi uchun mavjud sanoat tarmoqlaridan samarali foydalanish hamda uning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish zarur. Ushbu vazifani hal etishda ayol tadbirkorlar faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat tarmoqlarida mahsulot diversifikatsiya darajasining pastligi, xomashyo bazasining yetarlicha rivojlanmaganligi va uning sust o‘zlashtirilganligi, ishlab chiqarishni keskin oshirishda chuqur qayta ishlash hisobiga katta zaxiralar mavjudligi – 3,3 milliondan ziyod aholiga ega hududda 51,2 foizi ayollarni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, 28.01.2022 y. https://lex.uz/docs/5841063
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martda “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-sonli Farmoni
3. Ахмедова Д. Аёллар тадбиркорлигини ошириш омиллари. // Journal of advanced research and stability(JARS) Volume:01 Issue:06/2021 , ISSN: 2181-2608
4. “Kichik biznesda ayollar bandligining ahamiyati”-Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti ilmiy amaliy jurnal № 6 (8).2026.ISBN 978-9943-5256-3-4
5. «Asel-rivoj tekstil» xususiy korxonasi, «Barqaror tekstil» xususiy korxonasi, «Bog‘ishamol tekstil lyuks» MCHJ, “Taraqqiyot tekstil rivoj” MCHJlarning ma’lumotlari asosida muallif tuzgan
6. https://gender.stat.uz/

[2] “Asel-rivoj tekstil” xususiy korxonasi, “Barqaror tekstil” xususiy korxonasi, “Bog`ishamol tekstil lyuks” MCHJ, “Taraqqiyot tekstil rivoj” MCHJlarning ma’lumotlari asosida muallif tuzgan